



ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA OY HAYRATI

Abdurahmonova Uldona Abdujapbarovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsent v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

E-mail: uldonu.umidjon@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17904115>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatidagi oy mifik obrazi ishtirokidagi poetik obrazlar, ramz istiora va metaforalar shoirning "Mangu ayroliq asrlarida", "Tiyramohning g'amgin tunida", "Sehr" kabi she'rlari misolida uning o'ziga xosliklari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: qamar hayrati, poetik obraz, yangi so'zlar yasalishi, "oltin oy", "Oybodom", "Oyo'choq", "Oy bola", "uch kunlik oy", istiora va metaforalar.

Abstract: This article examines the poetic imagery, symbolic metaphors, and allegories involving the mythical image of the moon in Eshqobil Shukur's poetry. Based on an analysis of his poems such as "In the Eternal Age of Separation", "On the Melancholy Night of November", and "Magic", the study reveals the poet's stylistic uniqueness in creating lunar imagery.

Keywords: wonder of the moon, poetic image, neologisms, "golden moon", "moon-almond (Oybodom)", "moon-cup (Oyo'choq)", "moon-child", "three-day moon", allegory and metaphors.

Аннотация: В данной статье анализируются поэтические образы, символы, аллегории и метафоры, связанные с мифическим образом луны в поэзии Эшқобила Шукура. На примере таких стихотворений, как «В вечных веках разлуки», «В печальной ночи ноябрьского месяца» и «Колдовство», исследуются особенности авторского стиля и способы создания лунной образности.

Ключевые слова: восторг луны, поэтический образ, образование новых слов, «золотая луна», «Ойбодом», «Ойочоқ», «лунный ребёнок», «трёхдневная луна», аллегория и метафоры.

Kirish. Oy – insonga hayrat bag'ishlaydigan mo'jiza, dunyo adabiyotida eng ko'p murojaat qilingan mifik obrazlardan, ilk adabiyotning ilk "qahramonlar"idan biridir. Oy timsoli sharq-islom ma'rifatida: nur, yog'du, yorug'lik; ilohiy quvvat (payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) quvvati bilan "Oyning ikkiga bo'linishi" mo'jizasi); tug'ilish, yangilanish, komillik, to'linlik, o'lim (oy fazalariga qarab); g'alaba (musulmonlar nusрати, 1453-yili Istanbul fathi); ayol (ona), go'zallik, sukunat, muhabbat, tush va asror manzilini ifodalaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Eshqobil Shukur she'riyatida oy mifik obrazining badiiy talqinini tahlil qilishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda deskriptiv, struktural-semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, she'rlardagi oyga oid metafora, istiora va ramziy obrazlarning ma'no qatlamlari aniqlab chiqildi. Keyin oy timsolining mifologik manbalardagi o'rni bilan shoir poetikasidagi ko'rinishlari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, shoir yaratgan neologizmlarning poetik vazifasi va badiiy-estetik yuklamasi tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar oy obrazining badiiy mazmuni va Eshqobil Shukurning individual poetik uslubini aniqlash imkonini berdi.



Tahlil va natijalar. Shoir Eshqobil Shukur asarlaridagi **oy mifik obrazi ishtirokidagi poetik obrazlar, ramz istiora va metaforalar** quyidagi o'ziga xosliklar bilan xarakterlanadi:

a) yangi so'zlar yasalishi (*Oybodom, Oybotar, Oytug'ar, Oybulut, Oygiz, Oyo'choq, Oybola, Oyro', Oyqorong'i, mohbaliq* va hkz). "Mangu ayroliq asrlarida" she'ri[1.10] ning asosiy lirik qahramonining:

- a) ismi – *Oybodom*;
- b) manzil-makoni – *Oybotar*;
- v) maqomi – "*oyqizlarning oyparisi*";
- g) ahvoli – "*oy kabi toq*";
- d) yumushi – "*oltin oyga olma otish*".

She'ning ilk sakkiz qatorida "*Oybodom*", keyingi to'rt qatorida "*olib ket*", so'ng yana uch qatorda "*bo'loyin*" so'zlarining epifora bo'lib kelishi (qofiyadan so'ng takrorlanishi), bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylik she'rga assonanslik (xushohanglik) bag'ishlagan, uning musiqiyiligini kuchaytirgan:

*"Oltin oyga olma otar Oybodom,
Oybotarda yig'lab yotar Oybodom.
Oygizlarning oyparisi Oybodom,
Kunbotardan kuyib o'tar Oybodom..."*

"*Oltin oy*" – sirlar, niyatlar aytiladigan ma'vo, orzular jamlanadigan ma'vo; *Oybotar, Kunbotar, Yil botar* – umr timsollari bo'lib, ular "*Oybodom*" obrazi atrofida birlashtirilgan. "*Oybodom*" ismini sharhlasak, oy – yog'du, nurni, bodom esa sabr-qanoat, poklik, barkamollik[2.8] ni bildiradi va shundan kelib chiqib, "*Oybodom*" – nurli pok qiz obrazi, uning "*Oltin oyga olma otish*"i – o'z-o'ziga muhabbati Yaratganga bo'lgan irfoniy sevgi mujdasi, "*Oybodom*"ning "*Oybotarda yig'lab yot*"ishi, "*Kunbotardan kuyib o't*"ishi, "*Yil botarda qora suvlarga cho'k*"ishi, "*Qayg'u yurti*" ekani – hali Yaratgan vasliga erishish, iymonga erishishning ranj-u mashaqqatlari, iltiroblari ekanini anglagandek bo'lamiz. Mazkur she'rga "Mangu ayroliq asrlarida" sarlavhasi qo'yilgani ham buni dalillaydi.

Yana bir she'r [E.Shukur. Yashil qushlar. 64]da itoat istagi, ibodatga intilish zavqi – "*Oyo'choq*"da dil ("*Oyo'chog'da dil pishdi hil-hil*"), ko'ngilning Yaratganga yuzlanishi, qalbning ibodat uchun tayyor bo'lishi – changaroq, ya'ni "o'tov osmoni"da oy, ko'zlar Allohdan qo'rqib yig'iga to'lishi esa "kiprikda dur" ("*Changaroqda oy pishdi, hay-hay, // Kiprigimda dur pishdi, bay-bay*") "pishishi"ga mengzaladi. "O'zbek otaning 43-yildagi faryodlari"[3.5] da urushda halok bo'lgan navjuvon yigit "*to'lmay ketgan Oy bola*", yana bir she'r[4.216] da esa "*yuzqaro dunyoga yuzin*"i burgan, "*zulmat chimildiqqa xush kel*"gan, "*kelgindi zindonband, ummondan ayru*" ruh "*oyro*", ya'ni oyro'y – oychehra, "Tiyramohning g'amgin tunida" [5.32] esa oydin tun tasviri "*oyqorong'i*", deya ta'riflanadi;



b) yangi istiora va metaforalar. Insonning xayollari qanday bo'lsa, hayoti ham shunday bo'ladi. *“Metafora tushunchalarning tasavvurdagi uyg'unligidir. Tasavvurni yangilamay turib na metaforani, na so'zni yangilab bo'ladi”* (Nazar Eshonqul)[5.32]. Ayni shu tasavvur kuchi bilan **oy kaftda porlaydi** (*“Bir vaqtlar kaftimda oy porlagani // Tovonimda chaqmoq gullagani rost[4]”*), **manglayni yarqiratadi** (*“Daholar manglayin yarqiratgan oy, // Fidolar bag'ridan silqigan bardosh”*[6.222]), **g'arq pishadi** (*“Oylar g'arq pishgandi Do'stning ko'zida...[6.286]”*), **qovriladi** (*“Men endi oh ursam – jizillab pishadi muzlab yotgan oy[6.222]”*). Bundagi oy obrazlari yog'du, nur ma'nolarida kelib, ko'ngilning ibodat istagi, iymon quvvatini ifoda etadi.

Xuddi shu singari “Zamonda zamonsiz” she'ridagi *“uzlatdagi oy”*[5.51] istiorasi – sukunatga, o'z qalbiga, toatga yuzlanish, o'zi bilan o'zi yolg'iz qolishni; “Ozodlik” manzumasidagi *“turma tuynugiga osilgan oy”*[4.302] obrazi – ozod ruh, erkin qalb yog'dusini; “Hayotga qasida”dagi *“oyning nikoh to'yi”*[7.58] – ilm-ma'rifat, iymon-e'tiqod nurining ko'ngilga ko'chishini anglatadi. “Oy tovushlari” turkumi[7.46-48]dagi mansuralarning syujet chizig'i ham aynan ko'ngilning kirlardan xalos bo'lib, oy kabi soflikka, ulug'likka, yorug'likka erishishiga intilishda (*“...Men qushga aylansam qanday g'aroyib. Osmonni tanirdim, Yerni tanirdim. Parvozni tanirdim, she'rni tanirdim. Bir kuni, bir tongda qushga aylansam...”*, **“Osmonni tanish”** yoki *“...Uzoqdan otamning sharpasi o'tdi. Yalt etgan kulguday o'tdi ammam ham. Singlim tabassumi oyda ko'rindi...”*, **“Adashganda”** yoxud *“...Xudo haqda o'ylamoq zavqli, iymon haqda o'ylash ilhomli...”*, **“Tungi terakzor”**) namoyon bo'ladi;

v) oyning turli fazalardagi tasvirlari. Ali Qushchining “Astronomiyaga oid risola”sida yozilishicha, “oy qalin va sayqalli jismdir”. Ya'ni o'zining narigi tomonini ko'rishga to'sqinlik qiladi. Quyoshga ro'paraligi jihatdan undan nur oladi. Oyning biz tomonga ko'ringan qismida qariyb yarmi qorong'i bo'lsa – muhoq (botgan oyning oxirgi uch kuni), nurli yarim oyning bir qismi ko'rinsa – hilol (yangi chiqqan oy), nurli yarim to'linlashsa – badr (o'n to'rt kunlik oy), oy qorayib, butunlay ko'rinmay qolsa – ijtimoi' (botgan oy) deyiladi[8.62].

Bizningcha, ayni shu oyning bir oy ichida turli fazalarda namoyon bo'lishi, o'z holatining o'zgarishi, tuslanishi tasvirlari poetikada tug'ilish, yangilanish, komillik, to'linlik, o'lim motivlarini timsollaydiki, bunga Eshqobil Shukur ijodidan ham talay misollar keltirish mumkin. Deylik, shoirning “Ikki dunyo oralig'idagi qofiyasiz tushlar” turkumi avvalidagi she'r[9.62] da *“uch kunlik oy”, “yo'rgakdagi oy”* metaforasiga duch kelamiz:

*“Uch kunlik oy, yo'rgakdagi oy
Shart kesib tashladi boshimni.
Besh kun o'tgach, qorong'i besh kun
O'mgan tomirimdan ko'kardi bu gul,*



Payg‘ambar boshiga o‘xshash ulkan gul”.

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida har uch kunlik oy arab tilida alohida nomlar (“g‘urar”, “nufal”/“shuhb”, “tusa”/“buhr”, “ushar”, “biyz”, “dura”, “zulam”, “hanodis”/“duhm”, “daodiy”, “muhoq”) bilan atalganini yozadi[10.98]. Ya’ni har uch kunlik oyda bir tugallik ko‘rib, bu asosda vaqt hisobi olib borilgan.

Shulardan kelib chiqilsa, yuqoridagi she’rda aytilgan “*uch kunlik oy*” – nurli yarim oyning bir qismi ko‘rinishi, ya’ni hilol obrazi bo‘lib, bu yangilanish quvvati, musulmlilik, mo‘minlik ko‘ngilda g‘alaba qozonganini, besh raqami esa tugallanish, yo‘q bo‘lish[11] ni anglatadi. “Uch kunlik oy”ning o‘roq yoki bolta singari boshni kesish tasviri ham bu “oy” obrazi hilol ekanini dalillaydi. Shulardan kelib chiqib, “*uch kunlik oy, yo‘rgakdagi oy // shart kesib tashladi boshimni*” satrlarini “muslimlik qalbni zabt etdi, ko‘ngil itoatga keldi, yangilanish eskilikni, iymon quvvati isyonni yengdi”, “*qorong‘i besh kun*”ni – “ko‘ngildagi barcha salbiy illatlar faolligining pasayishi, sustlashishi”, “*O‘mgan tomirimdan ko‘kardi bu gul, // Payg‘ambar boshiga o‘xshash ulkan gul*”ni esa “dil yangilandi, qalb iymon boshqaruviga bo‘ysundi” tarzida tushunish o‘rinlidir. Turkum nomidan (“**Ikki dunyo oralig‘idagi qofiyasiz tushlar**”) kelib chiqilsa ham, Ibn Siringa ko‘ra, tushda oy ko‘rish – hukmdorga, boshning tanadan judo qilinishi – yomonliklardan qutilishga, gul daraxti ulug‘likka dalolat qiladi[12] ki, bularning barchasi yuqoridagi fikrlarimizga o‘zaro uyg‘un bo‘lib, bir-birini ma’naviy to‘ldiradi.

Shu singari “Sehr” she’ri[13] dagi “*hilol etagi*” – mo‘minlik ostonasi (“...*Hilol etagida yig‘layotgan sen. Qadimiy oyatlar bitilgan yo‘lda, Eshqobil emasman endi men*”); “*hilol qayig‘i*” – ruhning najot topish imkoni, iymon yo‘li (“*Axir qayda qoldi qayig‘im hilol? Kayda o‘sha daraxt? Qayda o‘sha qush?*”), “*qabrdagi hilol*” – avlodlar osha yashaydigan ilm-ma’rifat, nasldan naslga o‘tuvchi iymon quvvati (“*Yangi oy chiqmoqda pirlar qabridan, // Men hayron, do‘st hayron, ikki dil hayron...*”) hayratlaridir.

Xulosa. Eshqobil Shukur ijodidagi oy mifik obrazi ishtirokidagi poetik obrazlar, ramz istiora va metaforalar lirik ifoda va individual uslubning retseptiv jarayonga xos muhim vositalari bo‘lish bilan birga xalqimizning quyosh, oy, yulduzlar bilan bog‘liq tasavvur, dunyoqarashlari, ko‘hna mifologik tizimga oid bilimlari, ulardan hosil bo‘lgan quyma timsollar mag‘zida bobomeros-momomeros astronomik bilim, qutblar, fasllar almashinuvi, vaqt ichida o‘lib qayta tiriluvchi tabiatga mos inson ko‘nglining o‘zini o‘zi yangilab borishi timsoliy ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 10.
2. Abdulxayrov M. Ma’no va timsollar siri. / Jahon adabiyoti, 2008. 8-son.
3. Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 5.
4. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 216.
5. Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademiya nashri, 2013. – B. 32.



6. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/nazar-eshon-ul-tasavvurga-dosh-bersang/>
7. Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.: Akademiya, 2013. – B. 76.
8. Ali Qushchi. Astronomiyaga oid risola. – T.: Fan, 1968. – B. 62.
9. Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 62.
10. Qarang: Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. .Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – T.: Fan, 1968. – B. 98.
11. Jumayeva S. O'zbek mumtoz she'riyatida raqam ramzlari va ularning ma'no talqini. – T.: Fan, 2010.
12. Muhammad Ibn Sirin. Tushlar ta'birnomasi. – T.: Toshkent islom universiteti, 2012.
13. Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san'at, 1988. – B. 60.

